

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

YAXYAYEVA NAVRUZA XOLBO‘TAYEVNA

**MEDIAMATNDA UMUMINSONIY QADRIYATLAR TIZIMINING
LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI
(INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va
tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent–2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)

Ҳахуаева Навруза Холбо‘таевна Mediamatnda umuminsoy qadriyatlar tizimining lingvokulturologik tadqiqi (ingliz va o‘zbek tili misolida).....	5
Яхяева Навруза Холбутаевна Лингвокультурологическое исследование системы общечеловеческих ценностей в медиатекстах (на примере английского и узбекского языков).....	23
Ҳахкыаева Навруза Холбутаяевна Linguoculturological study of the system of universal values in media texts (on the example of the English and Uzbek languages).....	45
Е’lon qilingan ishlar ro‘uxati Список опубликованных работ List of published works	51

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLAR UNIVERSITETI

YAXYAYEVA NAVRUZA XOLBO‘TAYEVNA

**MEDIAMATNDA UMUMINSONIY QADRIYATLAR TIZIMINING
LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI
(INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va
tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi oliy attestatsiya komissiyasi da B2019.3.PhD/Fil1002 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (uswlu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Teshabayeva Dilfuza Mo'minovna,
filologiya fanlari doktori, professor

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 raqamli Ilmiy kengashning 2021 yil «___» _____ kuni soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-A uy. Tel.: (99871) 230-12-91, faks: (99871) 230-12-92, e-mail: uzswlu_info@mail.ru)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-A uy. Tel.: (99871) 230-12-91, faks: (99871) 230-12-92.)
Dissertatsiya avtoreferati 2021 yil «___» _____ kuni tarqatildi. (2021 yil «___» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

G.X. Bakiyeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filol. f.d., professor

X.B. Samigova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d. dotsent

J.A. Yakubov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida so‘nggi yillarda media tiliga bo‘lgan qiziqish ko‘lamining kengayishi mediamatnning deyarli barcha lingvistik jihatlarini tadqiq etish borasidagi bahs-munozara, tortishuvlar tadqiqotlar nishoniga aylandi. Shu munosabat bilan mazkur dissertatsiyada media tiliga turli ta’riflar va yondashuvlar orqali mediamatnning aksiologik tadqiqi amalga oshiriladi. Zero, media tili jamiyat faoliyatida xulq-atvor va xatti-harakatlar birligini aks ettiradi hamda qadriyatlar tizimi millat mentaliteti uning vakillari nutqida til vositalari, o‘ziga xos usullaridan foydalanish orqali namoyon bo‘ladi.

Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab, ma’naviy taraqqiyot modelini, milliy o‘zligimiz, xalqimizning boy madaniy merosi, an’analari, urf-odatlarini, udumlari va ularning negizida shakllangan o‘ziga xos ruhiyatiga mos keladigan tamoyillarni islohot yo‘li bilan yarata boshladi. Xususan, ommaviy axborot vositalari (keyingi o‘rinlarda OAV) ham o‘z faoliyatini qaytadan isloh qila boshladi. OAVda kommunikativ jarayonlar va ularda ishlatiladigan til vositalarining qadriyatlar tizimi bilan bog‘liqligini tadqiq qilish lingvomadaniyatshunoslik tamoyillariga asoslanadi. OAV jamiyatimizning qadriyatlarini himoya qilishga va insonlarning siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, ma’naviy ongini shakllantirishda o‘ziga xos mexanizm bo‘lib xizmat qilishi islohotlarning pirovard maqsadidir. Ma’lumki, mediamatn yaratilishida mentalitet va qadriyatlarga ko‘ra, so‘z va iboralar muloqot maqsadi va holatiga qarab turlicha qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»¹, 2019 yil 2 fevraldagi PF-5653-son «Axborot sohasi va ommaviy kommunikatsiyalarni yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»²gi farmonlari, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»³gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сон Фармони. www.uza.uz. 08.02.2017.

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ахборот соҳаси ва оммавий коммуникацияларни янада ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПФ-5653-сон Фармони. www.uza.uz. 02.02.2019.

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Олий таълим тизimini янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-2909-сон Қарори. www.uza.uz. 20.04.2017.

g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mavzu doirasida lingvokulturologik aspektida qadriyatlar tizimi xorijiy va o‘zbek tilshunosligida S. S.Schvartz, J. Kaur, B.Jonston, R.Tanyi, YE. Albert, D.Xav⁴ kabi ingliz tadqiqotchilari, V.Sinyachkin⁵, N.Kazakova, N.D.Arutyunova, T.Yemelyanenko, G.Gibatova, A.Vejbitskaya, A.A.Ivin, YE.M. Volf, Y.Stepanov, YE.Vereshagin, V.Kostomarov, V.Vorobev, Z.Popova, V.I. Karasik, I.Sternin, V.I. Karasik kabi rus olimlari, K.N. Nazarov, R.X. Ro‘ziyeva, M. Farmonova ⁶ kabi o‘zbek olimlar ishlarida kuzatish mumkin.

Media tili tadqiqi ingliz tilshunosligida D.Bernandi, P.But, A.Koppa, L.Steyner, L.Rassel kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan.

Rus tilshunosligida medialingvistika nazariyotchilariga V.G.Kostomarov, I.P.Lisakova, T.G.Dobrosklonskaya, D.N.Shmelev, S.I.Bernshteyn, A.N.Vasileva, Y.V.Rojdestvenskiy, G.Y.Solganik, S.I.Treskova, B.V.Krivenko⁷ kabi olimlarni kiritish mumkin.

Mediamatn, media tilining janr xususiyatlari, mediadiskurs, media tilining lingvokulturologik aspektida tadqiqi o‘zbek tilshunoslari A.Abdusaidov, G.Bakiyeva, D.Teshabayeva, M.Israil, S.Shomaqsudova, E.Begmatov,

⁴Newman L.L. Faith, Spirituality and Religion: A Model for Understanding the Differences. The College of Student Affairs Journal, volume 23, number 2, 2004. – P. 102.;Tanyi R. Nursing Theory and Concept Development or Analysis. Towards Clarification of the Meaning of Spirituality. – Blackwell Science Ltd, Journal of Advanced Nursing, EBSCO Publishing, 2002. – P. 500.; Muldoon, M., King, N. Spirituality, Health Care and Bioethics. – J.Relig. Health, 1995. – P. 34.; Hill, V. Spiritual Development in the Education Reform Act: A Source of Acrimony, Apathy or Accord. Brit. J. Educ. Stud.1989. – P. 37.; Hay, D., Reich, K.H.; Utsch, M. Spiritual Development: Intersections and Divergence with Religious Development. In The Handbook of Spiritual Development in Childhood and Adolescence.Sage Publications: Thousand Oaks, CA, USA, 2006. – P. 44.

⁵ Общечеловеческая ценность *Дом* в русском и немецком языковом сознании // Материалы международной научной конференции «Жизнь языка в культуре и социуме – 3», Москва, 20-21 апреля 2012 г. / Ред. коллегия:

Е.Ф. Тарасов (отв. ред.), Н.Ф. Уфимцева, В.П. Синячкин. – Москва: Издательство «Эйдос», 2012. С. 290-292.

⁶Values in English language teaching. NJ: Erlbaum.2003; Гаак Т.П., Коннова С.М. Рассуждения о духовности: филологический аспект. Вестник ОГУ № 11,2012.173-182.; Колкунова К.А., Малевич Т.В. Понятие «духовность» в современной Российской литературе. Вестник ПСТГУ. Богословие. Философия. 2014.Вып.6.– С. 72-88.; Огородникова Т.Г. Понятие «духовность». Сравнительный анализ представлений о духовности у людей с высшим и средним профессиональным образованием//Вестник Ленинградского государственного университета им. А.С.Пушкина, 2011. Т.5.№2. – С.21.;От лингвистики к мифу. Лингвистическая культурология в поисках «этнической ментальности» [Электронный ресурс]. Составитель Павлова А.В. –Спб: Антология, 2013.; Соловьева Н. И. Актуализация лингвокультурного концепта «Бык» в испанской языковой картине мира. Автореферат дисс. на соиск. уч. степ.кан. фил. наук. – М., 2009. <http://www.espanol-spb.ru/articles/autoreferat/>; Шевелевский И.М. Информационно-аналитические тексты в деловом медиадискурсе (на материале онлайн-версий Российских СМИ). Дис. ...канд.филол.наук. – Тверь., 2015; Teun A. van Dijk. Elite Discourse and Racism. – USA., 1993;

⁷ *Добросклонская Т.Г.* Теория и методы медиалингвистики (на материале английского языка). – М., 2000; *Шмелев Д.Н.* Синтаксическая членимость высказывания в современном русском языке. – М.: КомКнига, 2006. – 152 с.; *Бернштейн С.И.* Язык радио. – М., 1977; *Костомаров В.Г.* Русский язык на газетной полосе. Некоторые особенности языка современной газетной публицистики. – М.: МГУ, 1971; *Васильева А.Н.* Газетно-публицистический стиль речи: курс лекций по стилистике русского языка. – М.: Русский язык, 1982. – 197 с.; *Рождественский Ю.В.* Теория риторики. – М., 1997; *Солганик Г.Я.* Общие особенности языка газеты // Язык и стиль средств массовой информации и пропаганды. – М.: МГУ, 1980. – С. 22; *Трескова С.И.* Социалингвистические проблемы массовой коммуникации. – М., 1989, –С. 178; *Лысакова И.П.* Язык газеты: социалингвистический аспект. – Л.: ЛГУ, 1981; *Кривенко Б.В.* Язык массовой коммуникации: лексико-семиотический аспект. – Воронеж, 1993.

S.Qo'ng'urov, D.Xudoyberganova, SH.Usmanova, YO.Odilov, A.Mirzajonov M.Artiqova, S. Atkamova⁸ kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan.

D.M. Teshabayeva OAV tilining mentallik xususiyatlari va qadriyatlarning media tiliga ta'siri masalalari tadqiq qilgan⁹.

Biroq, mahalliy va xorijiy olimlarning tadqiqotlari mavjud bo'lishiga qaramay, ingliz va o'zbek bosma medida materillari asosida qadriyatlar va umumqadriyatlar tizimi masalasi yetarlicha o'rganilmaganligini ta'kidlash lozim.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti ilmiy-tadqiqot ishlarining «Tarjima muammolari» ilmiy mavzusining tarkibiy qismi bo'lib, tarjima nazariyasi va amaliyoti fakultetining ilmiy rejalariga kiritilgan.

Tadqiqotning maqsadi: ingliz va o'zbek bosma media tili shakllanishida qadriyatlar tizimining o'rni, umuminsoniy qadriyatlarning mediamatnda yoritilishiining lingvokulturologik xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ingliz va o'zbek tilshunosligida qadriyatlar tizimini bosma mediamatn nuqtai nazaridan tadqiq etish;

chog'ishtirilayotgan tillarda media tili tushunchasini hamda mediamatnning lingvistik tabiatini yoritish;

ingliz va o'zbek tillarida qadriyatlar kategoriyasining uslubiy xususiyatlarini yoritish va misollar orqali dalillash;

ingliz va o'zbek nashrlarida umuminsoniy qadriyatlarni anglatuvchi til birliklarini tahlil qilish;

ingliz va o'zbek tillarida gazeta matnidagi umuminsoniy qadriyatlarning sarlavhalarda berilishi modellarini yoritish;

bosma medianing lisoniy olamida umuminsoniy qadriyatlarning lingvokulturologik jihatlarini yoritish, o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti Amerika Qo'shma Shtatlari va O'zbekiston Respublikasi gazetalarida qo'llanilgan qadriyatlarni anglatuvchi leksik birliklar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini media olamida umuminsoniy qadriyatlarning lingvomadaniy aspekti tashkil etadi.

⁸ Абдусайдов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари. Филол.фан.д-ри.дисс. – Самарқанд, 2005; Бакиева Г.Х., Тешабаева Д.М. Оммавий ахборот тили. – Тошкент: O'zkitobsavdo nashriyot, 2019; Бакиева Г.Х., Тешабаева Д.М. Медиамаконда матн. – Тошкент, 2019; Тешабаева Д.М., Бакиева Г.Х., Исраил М.И., Тошмухамедова Л.И., Нуриддинова М.Ч. Журналистика. III жилд. Медиалингвистика ва тахрир. – Тошкент: Ozbekiston, 2019; Тешабаева Д.М. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида): Филол.фан.д-ри. дисс. – Тошкент, 2012; Худойберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентриқ талқини: Филол.фан. д-ри. дисс. – Тошкент, 2015; Shomaksudova S., Israil M. OAVda yozma matn. Nutq va munozara. – Тошкент: Iqtisod-Moliya, 2018; Қўнғуров Р., Бегматов Э., Тожиёв Ё. Нутқ маданияти асослари. – Тошкент: Ўқитувчи. 1992; Усманова Ш. Лингвокультуроология. – Тошкент, 2019; Одилов Ё.Р. Глобаллашув даври публицистикаси тилининг тараққиёти: Нодирабегим, 2020; Мирзажонов А.Х. Современное понимание медиатекста в условиях конвергенции СМИ // Global science and innovations 2020: Central Asia. – Нур-Султан, 2020.

⁹ Тешабаева Д.М. Медиаматнда менталликнинг прагматик хусусиятлари// "Интернаука" 31-2 (207) 2021, 25 С.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tavsiflash, kontent tahlil, leksik-sintaktik, leksik-semantik lingvokulturologik tahlil usullari qoʻllanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bosma mediamatnlarda umuminsoniy qadriyatlar va mental hodisalarning yoritilishi media janrlar xususiyatlariga jumladan, ingliz tilidagi gazetalarda tanqidiy, sharh, oʻzbek tilidagi gazetalarda tahliliy, badiiy-publitsistik janrlardagi maʼnaviy, axloqiy, milliy mavzularning targʻibotidan iborat faktik materiallarga bogʻliqligi dalillangan;

media tilining lingvomadaniy yondoshuvi asosidagi tadqiqi ingliz va oʻzbek tillaridagi gazeta matnlarida umuminsoniy qadriyatlarning aksiologik tasnifi asosida yoritilishi jurnalist ijod namunasi va shaxsiy lisoniy didi orqali kommunikativ va linvomadaniy tamoyillarga tayangan holda muallif – aloqa kanali – jamiyat – til – madaniyat – mentallik – muvofiqlik omillariga bogʻliqligi isbotlangan;

chogʻishtirilayotgan tillarda umuminsoniy qadriyatlarni ifodalovchi til birliklari ingliz tilidagi gazeta matnlarida ozodlik, erkinlik, tinchlik, adolat, baxt-saodat, oʻzbek tilidagi gazeta matnlarida vatanparvarlik, mehnatsevarlik, doʻstlik, muhabbat kabi umumijtimoiy mazmunga ega aksiologik modellar transformatsiyasiga bogʻliqligi dalillangan;

mediamatnning “aksiologik – milliy – mental” baholovchi xususiyatlari - olamda roʻy berayotgan oʻzgarishlar, insoniyat va jamiyat oʻrtasidagi munosabatlar, odamlar va ular hayotining ijtimoiy subyektlari uchun ahamiyatli kategoriyalari asosida ingliz tilidagi gazeta matnlarida friendship, relationship, tolerance, conscience va oʻzbek tilidagi gazeta matnlarida mehr-oqibat, insofdiyonat, bagʻrikenglik, birodarlik, halollik, poklik kabi leksemalar orqali shakllanganligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz va oʻzbek tillarida gazeta matnida umuminsoniy qadriyatlarning uslubiy xususiyati tavsifi shakllantirilib, tilshunoslik tizimida va amaliyotda qoʻllash mumkinligi asoslangan;

mediamatnning tahlili borasida olingan natijalar magistratura va bakalavriat bosqichlari talabalariga media tili va uslubi, tahrir mahorati kurslari boʻyicha mashgʻulotlarni tashkil etishda va oʻquv adabiyotlarini yaratishda metodik taʼminot bazasi sifatida shakllantirilgan;

chogʻishtirilayotgan tillarda umuminsoniy qadriyatlarning, mediamatn nazariyasi, matn tuzish tamoyillari aksiologik talqin qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi xulosalarning ishonchliligi, muammoning aniq bayon qilinishi, ishda qoʻllaniladigan yondashuvlar va usullarning samaradorligi bilan belgilanadi. Shuningdek, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-uslubiy va ilmiy-amaliy konferensiyalar materiallari, OAK roʻyxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ingliz va oʻzbek tillari leksikologiyasi va leksikografiyasi,

lingvoma'naviyatshunoslik, medialingvistika bo'yicha nazariy manba yaratishda, medialingvistika-diskursiv-mediamatn spetsifikasini tilshunoslikning turli yo'nalishlarida tadqiq qilishda hamda darslik va qo'llanmalarni qo'shimcha materiallar bilan ta'minlashda ilmiy manba bo'lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot natijalaridan mediamatn yaratish, tahrir mahoratini oshirish, axborotni ta'sirchan tarzda yetkazishda hamda OAV tilining uslubiy xususiyatlarini yoritishda foydalanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. Mediamatnda umuminsoniy qadriyatlar tizimining lingvokulturologik tadqiqi (ingliz va o'zbek tillari misolida) bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

Ingliz va o'zbek mediamatnlarida qadriyatlar tizimining yoritilishi mediamatnning milliylik xususiyati va xalq mentaliteti bilan bog'liqligini yoritish, umuminsoniy qadriyatlarni ifodalovchi til birliklarini aksiologik modellari yaratishdan olingan ilmiy xulosalar hamda taqdim etilgan ma'lumotlardan O'zbekiston Yoshlari Umumjahon assotsiatsiyasining "Xavfsiz migratsiya" (04-01/08a 29.04.2022) va "Musofir" (04-01/10b 6.04.2022 yil) xayriya loyihalarida foydalanilgan. (O'zbekiston Yoshlari Umumjahon assotsiatsiyasining 09.06.2022 yildagi 03-02 152-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ushbu amaliy loyiha doirasida yaratilgan bukletlar, broshyuralar, tarqatma materiallarni tayyorlashda xizmat qildi.

Umuminsoniy o'zbek qadriyatlarini aks ettiruvchi milliy o'zlikni anglash tushunchalarini hayotga tadqiq etishda va milliy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirishda targ'ibot tadbirlarining ahamiyati yuqoriligi bois tadqiqot ishining ilmiy xulosa va takliflaridan O'zbekiston Respublikasi "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining saylov oldi dasturlarini tuzishda keng foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi Markaziy kengashining 14.06.2022 yildagi 02/05-121-sonli ma'lumotnomasi). Natijada "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari" shiori ostida partiyasining saylov oldi dasturlarida tayyorlashda xizmat qildi.

Media janrlar xususiyatlari hamda media olamida axborotning mental hodisalari faktik materiallarga asoslanishi va gazeta matnidagi umuminsoniy qadriyatlarining yoritilishi jurnalist ijod namunasi sifatida lingvomadaniy hodisa bilan bog'liqligi haqidagi ilmiy natijalardan "O'zbekiston ovozi" gazetasida sahifalarida foydalanilgan ("O'zbekiston ovozi" gazetasi 22.09.2022 yildagi 81-sonli ma'lumotnomasi). Natijada gazetada jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni yoritishda umuminsoniy qadriyatlar o'rni mavzusidagi maqolalar ko'lamini kengaytirildi.

Media olam tasviri umuminsoniy qadriyatlar orqali axborotni uzatishda mentalitet masalasi muhimligi, olamda ro'y berayotgan o'zgarishlar, insoniyat, jamiyat, odamlar, ularning hayoti, faoliyatining ijtimoiy subyektlar uchun ahamiyati hamda qadrini anglatadigan kategoriyalar aksiologik olam tasvirining fragmenti ekanligi kabi ilmiy natijalari, amaliy takliflari hamda tavsiyalaridan "Nihol" o'zbek-olmon ilmiy va madaniy jamiyati "Knowledge sharing" va Germaniyadagi vatandoshlarimiz farzandlari uchun tashkil etilgan "Sprachkurse Usbekisch als Fremdsprache" til kurslarida foydalanilgan ("Nihol" Deutsch-Usbekischer Kultur und Wissenschaftsverein, Berlin, Deutschland 10/08/2022

yildagi ma'lumotnomasi). Natijada yaratilgan tarqatma materiallarning mazmundorligi oshirilib, mahalliy va xorijiy auditoriyani keng jalb qilishga hissa qo'shilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari bo'yicha 6 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda qilingan ma'ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda va 1 tasi SCOPUS bazasida indekslanadigan jurnallarda nashr qilingan. Tadqiqot natijalari 14 ta, jumladan, 6 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 130 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «Jahon tilshunosligida mediamatni aksiologik tadqiqiga ilmiy-nazariy qarashlar» deb nomlanuvchi birinchi bobida o‘zbek lisoniy tasvirida «mediamatn» kategoriyasi, o‘zbek tilida «qadriyatlar» ularning umumiy xususiyatlari o‘rganilgan hamda ushbu masalalarga munosabat bildirilgan.

Mamlakatimiz so‘nggi yillarda o‘zining ijtimoiy, iqtisodiy, ma‘naviy taraqqiyot modelini, milliy o‘zligimiz, xalqimizning boy madaniy merosi, an‘analari, urf-odatlarini, udumlari va ularning negizida shakllangan o‘ziga xos ruhiyatiga mos keladigan tamoyillarni islohot yo‘li bilan yarata boshladi. Xususan, ommaviy axborot vositalari ham o‘z faoliyatini qaytadan isloh qila boshladi. Media tili tadqiqiga bo‘lgan qiziqishning yuqoriligi bugungi kunda jamiyatda yuz berayotgan voqea hodisalarning rivoji va uni ommaga samarali uzatish bilan belgilanadi. Zero, M.N. Volodinaning ta’kidlashicha, “Insonlararo muloqot paytida qo‘llaniladigan verbal til o‘z asosiy xususiyatlarini ommaviy kommunikatsiya jarayonida o‘ziga xos ravishda namoyon etadi”¹⁰. Aynan media tilining shakllanishi OAVning vazifalari bilan bog‘liq bo‘lib, M. Goroxov “...jurnalistikaning vazifasi o‘tkinchi tasodifiy emas, balki aniq maqsadga yo‘naltirilgan umumiy va qonuniy xarakter kasb etishi, u o‘zida maqsad va vositalari ifodalashi qayd etilgan” deya fikr bildirgan ¹¹.

Ta’kidlash joizki, “axborot” tushunchasiga joriy qonunchiligimizda muayyan darajada ta’rif berilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunida ko‘rsatilishicha: “Axborot bu – manbalari va taqdim etilishi shaklidan qat’iy nazar, shaxslar, predmetlar, faktlar, voqealar, hodisalar va jarayonlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlardir”¹². Axborot bu – kommunikatsiyaning mazmuniy aspektidir¹³. “Jurnalistning axborotni qayta ishlash, uni talqin etish hamda og‘zaki yoki yozma nutq shaklida ifodalash ma‘suliyati va mahorati umummilliy madaniyatning ham, umuminsoniy axborot madaniyatining ham tarkibiy qismidir”¹⁴.

¹⁰ Володина М.Н. Язык СМИ как особый вид социального взаимодействия/Язык СМИ как объект междисциплинарного исследования.– Ч.2–М.,2004.–С.11.

¹¹Горохов В.М. Об агитационной функции печати: Вестник МГУ. / сер. Журналистика.1970.–№ 4.–С.3.

¹²Ўзбекистон Республикасининг “Ахборот эркинлиги принциплари ва кафолатлари тўғрисида” ги Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Ахборотномаси.2003.–№ 1. 2-модда

¹³ Тешабаева Д.М. Медиалингвистика ва Таҳрир.-Ўзбекистон., 2019.-51 бет

¹⁴ Тошалиев И., Абдусатторов Р. Оммaviy axborotni tili va uslubi.–Тошкент:Зар қалам,2006.–Б.4.

OAV tili haqida aytish mumkinki, tadqiq qilish, dunyoni anglash OAVning asosiy prinsipi emas. Lekin uning jamiyatda tutgan o'rnini targ'ibotchilik, bilimlarni yetkazib beruvchi sifatida ham baholab bo'lmaydi.

Shu o'rinda aytish joizki, mediamatning o'ziga xos xususiyatlarini aksiologik nuqtai nazardan ilmiy paradigma sifatida ko'rib chiqish va tahlil qilish modelini yaratish, shubhasiz, dolzarb hisoblanadi. Mediamatn bilan bog'liq yana bir hodisa bu aksiologik yondashuv masalasidir. Zero, "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar qonun oldida tengdirlar"¹⁵, deb belgilab qo'yilganligi, ko'pmillatli xalqimiz o'rtasidagi totuvlik va hamjihatlikni yanada mustahkamlash uchun yaratilgan zamindir. Zero, aksiologiyani qadriyatlar to'g'risidagi fan yoki to'g'ridan-to'g'ri qadriyatshunoslik, deb ham atash mumkin. Har bir fanga o'z nomini bergan tayanch tushunchalar bo'lgani kabi "qadriyat" tushunchasi "qadriyatshunoslik" atamasi uchun asos rolini bajaradi¹⁶.

Aksiologiya qadriyatlarga, **birinchidan**, umumiy kategoriya sifatida qaralsa, **ikkinchidan**, qadriyatlar reallikning namoyon bo'lish shakllari, voqelikdagi narsa, hodisa va jarayonlarni inson uchun ahamiyatini belgilaydi, **uchinchidan**, ijtimoiy subyektlarni olamdagi ro'y berayotgan o'zgarishlar, jamiyatda odamlarning hayoti, faoliyatining va qadrini anglatadigan umumaksiologik kategoriya sifatida qabul qilinadi.

Ingliz qadriyatshunos olimi U.Djeyms "*qadriyat*" – "*value*"ni "*haqiqat*" bilan bir qatordagi tushuncha sifatida ta'riflaydi. Uning fikricha, qadriyat mazmuni foydalilik bilan o'lchanadi, nima foydali va qadrlil bo'lsa o'sha haqiqat. Qadriyat bizga lazzat va zavq-shavq bag'ishlagani uchun ham qadrlidir, agar narsa yoki voqelikni biror shakli keraksiz bo'lsa, ehtiyojlarimizga xizmat qilmasa uning qadri yo'q¹⁷.

Har bir millat "...o'zining qadriyatlarini vujudga keltirib, ularning yangi-yangi qirralarini va jihatlarini sayqallashtirib, taraqqiyot jarayonida takomillashtirib, o'z qadriyatlarining haqiqiy egasi, makon va zamondagi ilgarilama harakatdan iborat o'zgarishlar jarayonida ularni o'tmishdan kelajak tomon yetkazib boradigan eng asosiy obyektidir"¹⁸.

Bizning tadqiqotimiz ingliz va o'zbek madaniyati sohiblarining ong fragmentlarini ushbu madaniyatdagi umuminsoniy qadriyatlarni ehtimoliy unsurlar orqali namoyon etish jarayonini nazarda tutadi.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da umuminsoniy qadriyatlarga quyidagicha tushuncha berilgan: ijtimoiy guruh, madaniyat, mamlakat o'z fuqarolari uchun bir-birlariga amal qilishlari va namoyish etishlari uchun kerakli deb hisoblaydigan fazilatdir. Jamiyat va odamzod uchun eng qadrlil narsalarning ismi, nomi yoki

¹⁵ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси.–Т. "Ўзбекистон", 2016.

¹⁶ Низомов Қ. Қадриятлар фалсафаси.– Тошкент –2011.5–бет

¹⁷ James U. – Principles of psychology. N.K. 1 890. –133-134 pages.

¹⁸ Бекмуродов М. Миллий менталитет ва маънавият. Т.: 2002. – Б.10.

atamasi emas, balki ularning ahamiyatini hamda ijtimoiy qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan falsafiy aksiologik tushunchadir¹⁹.

OAV matnida til va madaniyatning o‘zaro ta’siri ko‘p tilshunoslik sohalarida ham o‘rganiladi. V.N.Teliya bu haqda shunday yozadi: “Lingvokulturologiya insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandır. Bu esa shuni bildiradiki, lingvokulturologiya markazi madaniyat fenomeni bo‘lgan inson to‘g‘risidagi atropologik paradigmaga xos bo‘lgan yutuqlar majmuasidair”²⁰. V.P. Sinyachkin “...qadriyatlar majmuini tahlili lingvokulturologik yondashuvga amal qilib, ongni ma’lum bir tashqi shaklda tasavvur qilish muammosini qayd etadi”²¹.

Ingliz va o‘zbek umuminsoniy qadriyatlarining mediamatnda aks etirilishida o‘ziga xos lisoniy jihatlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

Tug‘ilgan makon va ona yurtga ehtirom, vatanga muxabbat. Insonning tug‘ilib voyaga yetgan yurti har doim ardoqlanib kelingan. Shu sababdan uni ardoqlash qadriyatning eng oliy ko‘rsatkichidir. Masalan: “*O, ota makonim, Onajon o‘lkam, Senday mehribon yo‘q, seningdek ko‘rkam*” . (O‘z.AS.2018.No24) va h.k. “*Sen – qudrat manbai, saodat maskani, jonajon O‘zbekistonim!*” (XC.2020.No34) va h.k. AQSH gazetalarida ham da vatanga nisbatan sadoqatga yo‘g‘rilgan misollarni kuzatish mumkin. Masalan: “*Seye how your hometown has changed so far and how much hotter it may get*”. (NYT.16.01.2020) va h.k.

“*Astonishingly, given the awe-inspiring nature of those challenges, scientists, homeland*”. (WP.19.11.2020) va h.k

Markaziy Osiyo xalqlarining milliy qadriyatlardagi o‘ziga xos jihatlari quyidagilarni kiritish mumkin: *TUPROQ – bu bizning Ona yerimiz. Odamzotning tub qo‘yib, tomir yoyib, o‘zligini namoyon etish imkoni berilgan muqaddas makon. Barcha modda tuproqda unadi, kamol topadi va yana tuproqqa qaytadi*²².

Amerika gazetamatnlarida ajdodlar xotirasiga hurmat qadriyati quyidagicha berilgan: “*Meanwhile Fitzcarraldo has published her prose memoir In Memory of Memory, which probably gives us as good a guide as any to the shapes and motifs of Stepanova’s ancestors*”. (BG.07.04.2021); “*Five scholarships willed to Princeton By John H. Smith in Memory of Ancestors*”. (NYT.12.09.2018) va h.k.

O‘tgan ota-bobolar xotirasiga hurmat keltirish o‘zbek milliy qadriyatning yuksak ma’naviy belgisi hisoblanadi: “... olovli janggohlardan omon qaytgan, og‘ir kunlarni sabr-bardosh bilan yenggan **faxriylarimizga** yuksak ehtirom, mehr-oqibat ko‘rsatishga davlatimiz alohida e’tibor qaratib kelmoqda” (A.2020.No18); “*Ikkinchi jahon urushi frontlarida mardlik va jasorat namunalarini ko‘rsatgan bobolarimiz xotirasiga hurmat-ehtirom ko‘rsatish...*” (MT.2019.No 17); “*Shu ma’noda, xalqimizning o‘z ehtiyojidan ortiq sarmoyasini azaliy odatlariga amal*

¹⁹ Саидова М. Қўзиёв У. Лингвокультуроология.– Наманган–2017. 51-бет.

²⁰Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты.- М.:Школа “Языки русской культуры”,1996.– С.222.

²¹ Синячкин В.П. Общечеловеческие ценности в русской культуре: лингвокультурологический анализ. М. С-51

²² qomus.info/encyclopedia/cat-h/haqiqat-uz/

qilib, xayr-ehson, mehr-muruvvat ko'rsatish, muhtojlar, beva-bechoralarga yordam berish, mahallasi, yurt obodligi yo'lida sarflashi o'tgan ota-boblarimiz ruhini shod qilishi bilan birga hayotdagi insonlarning duolariga, ezgu tilaklariga erishadi" (O.J.2020.№24) va h.k.

Umuminsoniy qadriyatlar ma'lum bir til va madaniyatga tegishli lisoniy shaxs ongida nisbiy barqarorlikni muhim omili hisoblanadi. Albatta, qadriyatlar barqaror va bir vaqtning o'zida nisbiy, shuningdek individual va ijtimoiy ehtiyojlarga nisbatan moslashuvchan, harakatchan va o'zgaruvchandir. "*Azal-azaldan tijorat bilan shug'ullanuvchilar shirin va o'tkir so'zli kishilar bo'lishgan. Ular xaridorga o'ta xushmuomalalik bilan muloqot qilishar, bisotlaridagi eng go'zal so'zlarni ularga hadya etib, xaridorni o'zlarining doimiy mijozlariga aylantirishar va bu orqali sotuvchining cho'ntagiga pul tushar, xaridorning esa olgan buyumidan ham ko'ra, sotuvchining muomala madaniyatidan ko'ngli chog' bo'lar ekan"*(A.2021.№2) va h.k.

Aksiologik jihatidan milliy qadriyatlarimiz hisoblanmish hayo va andisha faqatgina Sharq mamlakatlari madaniyatiga xos tushunchalardir. ... "*Hunarmandlarimiz tomonidan yasalgan milliy qo'g'irchoqlar qizaloqlarda ibo, hayo, andisha tuyg'ulari shakllanishiga, o'g'il bolalarning mardlik, jasurlik, halollik kabi fazilatlarini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi"*(M.T.2019.№31) va h.k.

Dissertatsiyaning "Ingliz va o'zbek bosma mediasida umuminsoniy qadriyatlar tizimining lingvistik aspekti" deb nomlanuvchi ikkinchi bobi umuminsoniy qadriyatlarining aksiologik talqinning obykti sifatida ko'rib chiqiladi, o'zbek va ingliz tillaridagi qadriyatlarda inson obrazining bipolyarligi masalasiga bag'ishlangan.

Ingliz va o'zbek umuminsoniy qadriyatlari har ikkala millatda ham umuminsoniy qadriyatlarning eng oliy shakllari ideal-qadriyatlar sifatida qaraladi hamda eng oliy ideal hisoblangan umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan quyidagi kategoriyalar kiritiladi:

Ingliz umuminsoniy qadriyatlariga: *service - ko'mak, madad, love - muhabbat, peace - tinchlik, totuvlik; truth-haqiqat, wisdom - aql-zakovat, integrity -halollik, family-home- oila, equality - tenglik, coexistence - umr kechirmoqlik* va h.k. kategoriyalariga ko'proq insonning asosiy va asosiy bo'lmagan talablarini eng yuqori darajada qondira oladigan holat, deya ta'riflanadi.

O'zbek tilida umuminsoniy qadriyatlarga: nafosat belgisi – *go'zallik*; ma'naviy va axloqiy poklikni umumiy belgisi – *yaxshilik*; ona-yurtiga ehtirom-*Vatan- vatanparvarlik*; nafosat belgisi – *go'zallik*; bilimlarimiz va fan yutuqlarini amaliyotga mosligi – *haqiqat* odamlar o'rtasidagi ijobiy munosabatlar – *do'stlik; birdamlik*, eng xokisor va beg'araz tuyg'ular asosidagi qalblar bog'langanligi – *muhabbat; orzu-umidlarga erishganlikni - baxt-saodat; va axloqda - yaxshilik, burch, vijdon* va h.k.

Ushbu kategoriyalarning barchasi millatning xarakteri bilan belgilanadi. "Milliy xarakter deganda, ma'lum ijtimoiy guruh o'rtasida asrlar mobaynida avloddan-avlodga o'tib kelgan o'ziga xosliklar majmui tushuniladi. Milliy xarakterga mazkur millat aholisi sig'inadigan din, atrof-muhit va ijtimoiy turmush

tarzi jiddiy ta'sir ko'rsatadi va bu ta'sir o'z-o'zidan muloqot xulqida namoyon bo'ladi"²³.

Tahlillar natijasida mediamatnda umuminsoniy qadriyatlarning yoritilishida ingliz va o'zbek tillarida ularning kategorial ma'nolari muallif tomonidan kuchaytirilishi mumkinligi aniqlandi.

Amerika qadriyatlari va ijtimoiy xulq-atvorini tavsiflovchi va bu matnida eng ko'p eslatib o'tilgan atamalar orasida "*moddiy ne'matlarga intilish*" va "*lazzatlarga intilish*", "*pul va boylikka muhabbat*", "*foydaga intilish*" va "*moddiy manfaat olish*", "*g'arazgo'ylik*" kabilarni ajratish mumkin.

D.V.Osipov o'z tadqiqotida amerikaliklar yashaydigan quyidagi qadriyatlarni aniqladi: individualizm (individualism); erkinlik ((freedom); raqobat) musobaqa) tamoyili(challenge); shaxsiy yashash huquqi (privacy); tenglik(equality); munosabatlardagi norasmiylik (informality); kelajakka ishonch, o'zgarishlar (future, change, progress), taraqqiyot (kelajak, o'zgarish, taraqqiyot); insonparvarlik (humanity); hamma narsaga o'z kuchi bilan erishish qobiliyati (achievement, action, work, materialism); to'g'rilik va ishonch (directness, assertiveness)²⁴.

Mediada umuminsoniy qadriyatlarni anglatuvchi leksik birliklarni qo'llanilishi auditoriyani hayot va faoliyat jarayonida muqarrar sur'atda o'zlari uchun bunday qadriyat bo'lgan narsalarga duch kelishi, ularni ahamiyati, foydasi va qadrini anglashga, baholashga intilishiga ko'mak beradi.

Ingliz va o'zbek tillarida go'zallik umuminsoniy qadriyatlar tizimida "**Go'zallik**" umuminsoniy qadriyatlar sifatida qaraladi. O'zbek umuminsoniy qadriyatlar kategoriyasiga kiruvchi yaxshilik, inson, tabiat, predmet va h.k. go'zalligini belgilovchi mezon sifatida qaraladi.

Amerika qadriyatida go'zallik . Masalan, Go'zallik tushunchasi inson ichki ruhi go'zalligi ingliz tilida *beauty* leksemasi orqali ifodalanadi. "*There is no definition of beauty but when you can see someones' spirit coming through something unexplainable, that's beautiful to me*" (N.Y.T.2020.19.06); "*Beauty is star*" (NYT. 03.1972); "Olam go'zalligi: "**Go'zallik** butun olamni qalbgga olib kiradigan kuch va iste'dodga ega" (M.T. 2020.№17). "*Inson go'zalligi: "Inson chehrasi hamisha uning ichki olamini aks etiradi, shu sababli fikr yuzda aks etmaydi deb o'ylash xatodir"* (MT. 2020. №17) va h.k. Ushbu misolda go'zallikni targ'ib qiluvchi *chehra* leksemasi ishtirok etgan va u inson ichki olamining go'zalligini namoyon qilmoqda. O'zbek gazetalariidagi matnlarda diniy mavzuni yoritilishida go'zallik tushunchasining berilishi kuzatiladi: "*Cilai rahm, iltifot, xushmuomalalik, shirin so'z va toat. Bularning hammasi birga - go'zal axloqqa kiradi*" (X.S.2018.№100) va h.k.

Yaxshilik insonlar qalbiga doimo xursanchilik olib kiradi. Yaxshilik insonlarning muhim fazilatlarini hisoblanadi va inson faoliyatining azaliy mohiyatini anglatadi. O'zbek qadriyatlarida "yaxshilik" insonga kuchli ruhiy lazzat bag'ishlashi barobarida qaraladi, uni shaxsga aylantiradigan haqiqiy baxtga olib

²³ Mo'minov S. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. Filol. fan. dok. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2000. – B. 10.

²⁴ Телия Н.В. Типы языковых значений. Связанное значение слова в языке. – М., 1981.

boradi. Avestoda ham “ezgu (yaxshi) fikr”, “ezgu (yaxshi) so‘z”, “ezgu (yaxshi) amal” tushunchalari orqali axloqiy va amaliy faoliyatda muhim o‘rin egallaydi. Yaxshilik tushunchasida umuminsoniy qadriyatlar darajasiga qaraluvchi *kamtarlik, ochiqko‘ngillilik, mardlik, halollik, insofililik, adolat, rostgo‘ylik* kabi fazilatlarni anglatuvchi so‘zlar bilan mujassam bo‘ladi. Ingliz matbuotida ham “yaxshilik” so‘zining sinonimik qatoriga: *kindness, goodness, gentleness, kindness, graciousness, benignity, high quality, amiability, favor, kindness, civility, compliment* va h.k. kabi birliklar kiradi. AQSH gazetalarida asosan, *goodness* va *kindness* leksemalari orqali ifodalanishi kuzatildi: “*While **goodness** “lurks backstage and bites its tongue”, offered with an apology or a defect*” (WP.12.05.2021) va h.k. O‘zbek gazetalarida ingliz gazetalaridan farqli ravishda yaxshilik, ezgu ishlar targ‘ibi hamda ezgulik va yaxshilik sifatleri maqolalar orqali o‘quvchiga taqdim etiladi. Masalan, “*Bunda muallif “Yomonni ko‘rmasdan turib, yaxshining qadriga yetmas kishi” iborasiga amal qilgan holda, yomonlikni tartibsizlik keltirib chiqaruvchi va **yaxshilikni** esa tartib o‘rnatuvchi omil sifatida talqin etadi*” (YAO‘.2022.№132) va h.k. Ushbu misolda jurnalist “*Yomonni ko‘rmasdan turib, yaxshining qadriga yetmas kishi*” matalidan foydalanib, yaxshilikni targ‘ib qilgan.

Haqiqat Amerika qadriyati uchun adolatga yaqin tushuncha sifatida qaraladi. Ingliz tilida haqiqat tushunchasi “*Truth*” tarzida beriladi va *actuality, genuineness, accuracy, exactness, precision, reality* kabi sinonimlar bilan ham ifodalanadi. Masalan, *Truth* tushunchasi: “*The **truth** is rarely pure and never simple*” (UST.27.12.2021). “*Be mindful. Be grateful. Be positive. Be **true**. Be kind*” (BG.07.06.2020). “*Rather than love, than money, than fame, give me **truth**. Art is the lie that enables us to realize the **truth***” (WP.06.05.2018). “*Everything we hear is an opinion, not a fact*” (WP.06.05.2018) va h.k. O‘zbek haqiqatiga quyidagi ta’rif keltirilgan: **haqiqat**– voqelikning kishi ongida to‘g‘ri aks etishi, bilimlarimizning obyektiv reallikka mos kelishi. “**Haqiqat**”– to‘g‘ri, rost, chin, haqiqat, haqqoniy holat (O‘TIL. 518-bet). *Haqiqatning obyektiv, mutlaq, nisbiy shakllari bor. ... qanday bilim obyektiv **haqiqatdir**”. Borliqdagi narsa va hodisalar haqidagi to‘liq, aniq, mukammal bilimlar mutlaq **hakikatdir**” (O‘.O.2020.№18) va h.k. Ushbu maqolada haqiqatning obyektiv, mutlaq, nisbiy shakllari sifatida *hayot haqiqati, badiiy haqiqat, xayol haqiqati, hayotiy haqiqat* kabi tushunchalar keltirilgan. O‘zbek matbuotida berilayotgan materiallar asosida quyidagi xulosaga kelish mumkin. *Haqiqat adolat, rost - chinlik, to‘g‘rilik, ishonch* kabi tushunchalar orqali ifodalanishi ham kuzatildi.*

Muhabbat biror shaxsga yoki kishilar g‘ururiga, g‘oyaga yoki amaliy faoliyatga nisbatan kuchli tuyg‘u bo‘lib, umuminsoniy qadriyatlar sifatida qaraladi. “Muhabbat” so‘zini qadriyatlar tizimiga kiritilishi uning darajalari bilan bog‘liq hodisa, zero muhabbat insoniy hamda ilohiy darajalarga bo‘lnadi. “*We’re overjoyed to share that we’ve become parents! The process isn’t done yet and we’re thankful for the **love**, support, and respect for our privacy that has been offered to us*” (TWS.18.09.21). “*Darkness cannot drive out darkness: only **love** can do that*” (BG.12.06.2020) va h.k.

O‘zbek tilidagi gazetalarda umuminsoniy qadriyatlar qatoriga kiruvchi muhabbat tushunchasini targ‘ib qilinishi inson axloqiy hayotining cho‘qqisi, komillik belgisi sifatida qaralishini kuzatildi. Shu bois o‘zbek xalqining haqiqiy muhabbat egalari tomonidan doimo axloqiy ideal tarzida qabul qilinadi. Vatanga, oilaga, kasbga sadoqat ushbu tushunchalar o‘zbek xalqining azal-azaldan kindik qoniga singgib ketgan tuyg‘u bo‘lib, o‘zbek tilining izohli lug‘atida quyidagicha ta’rif berilgan: “**Sadoqat**”- do‘stlik, birdamlik, samimiylik, sodiqlik, vafodorlik (UTIL. 418-bet). “*Avvalo, menga ulkan ishonch bildirib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti etib qayta saylagan barcha yurtdoshlarimga chin qalbidan minnatdorlik izhor etib, mehnatkash, olijanob va bag‘rikeng xalqimizga farzandlik mehri va sadoqati bilan ta’zim qilaman*” (X.C.2016.№189) va h.k.

“**Adolat**”– ijtimoiy-falsafiy, axloqiy va huquqiy tushuncha. Kishilar ijtimoiy-siyosiy ongida katta rol o‘ynaydi. Muayyan ijtimoiy guruhlar va ayrim shaxslarning tushunchalarini o‘zida aks ettiradi. “...dangerous for our security as well as the interests of **justice**” (The Observer 05.12.21); “... Madrid woman who becomes a mother in middle age even as she’s striving to Win **justice** for her great-grandfather...” (Time 27.12.21). “We created a special project on racial **justice**, Visions of Equity, led...” (Time 27.12.21) va h.k.

Gazeta matnlarida adolat leksemasi ko‘proq siyosiy matnlarda kuzatildi, quyidagi “*Adolat – qonun ustuvorligida*”; “*Qonun ustuvor bo‘lgan joyda adolat bo‘ladi*”; “*Kuch – adolatda*” kabi sarlavhalarda ham ko‘rish mumkin. O‘zbek tilidagi gazeta matnlarida adolat leksemasi tasviriy vositalar sifatida ham kelishi kuzatiladi: “*Adolat daraxtni sug‘ormoq, zulm esa tikanga suv to‘kmoqdir*”(O.D.2020.№36) va h.k.

Ingliz tilida mehnatsevarlik tushunchasi **diligence** – *the quality of working carefully and with a lot of effort* (<https://dictionary.cambridge.org/ru>), **industriousness** – *the fact of working hard* (<https://dictionary.cambridge.org/ru>) **hard work** - *an activity, such as a job, that a person uses physical or mental effort to do, usually for money* (<https://dictionary.cambridge.org/ru>) va boshqa tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Quyidagi misollarda bu tushuncha iboralarda aks etganini ko‘ramiz. “*The city is renowned for its **industriousness** and education*” (WP.11.03.2020); “*She hoped that her **diligence** would be noticed at work.*”(NYT. 20.04.2020) va h.k.

Tarixdan ma’lum, Amerika qadriyatlari yaxshi hayot umidida ko‘chib kelgan, o‘z qobiliyat va matonatini ishga solib, qiyinchiliklarni yengib yashagan muhojirlarning orzularidan boshlangan. “**Amerika orzusi**”ning tarkibiy qismlari sifatida halol mehnat bilan o‘zini namoyon qilish, erkin tadbirkorlik, ijtimoiy mas’uliyat, vatandoshlarni hurmat qilish, jamiyatda odamning hurmat-e’tibori va rolining oshishi e’tirof etiladi.

D.Adamsning fikricha:“Amerika orzusi — inson qadri ulug‘lanadigan, mehnat sharoitlari yuqori va omadga erishiladigan g‘oya hisoblanadi”²⁵Inglizlarda mehnatsevarlik asosini moddiy boylik tashkil kiladi. Bu quyidagi misollarda ko‘rish mumkin: **make money** – *what you earn by working or selling things, and*

²⁵ Adams J. T. The Epic of America / J. T.Adams.— Safety Harbor, FL : Simon Publications, 2001.

use to buy things (<https://www.oxfordlearnersdictionaries.com>); **hush-money** – money that is given to someone to make them keep something secret (<https://dictionary.cambridge.org/ru>); **financial literacy** – the ability to understand basic principles of business and finance (<https://dictionary.cambridge.org/ru>); **handle our money** – to have smb money (<https://dictionary.cambridge.org/ru>) va boshqalar. Masalan: “Axios is the latest media company to try to **make money** from local news. History is not on its side” (WP.20.05.2021) va h.k.

O‘zbek ommaviy axborot vositasida yoritilgan bu misollarda **mehnatsevarlik** tushunchasi umuminsoniy qadriyat sifatida gavdalangan. Masalan: “Ota-onaning farzand va farzandning ota-ona oldidagi, er-xotinning bir-biri qarshisidagi, qo‘shnichilik majburiyat(burch)lari va hokazo. Bu kabi misollar esa “majburiyat”ni zo‘rlov ma‘nosida tushunmaslikni talab etadi. Axir “majburiyat” so‘zining tag zamirida vijdon amriga bo‘ysunish, mas‘uliyatlilik, **mehnatsevarlik** kabi fazilatlar ham mujassam ekanligini nazardan qochirmaylik” (H.2021.No 8) va h.k.

O‘zbek tilida pul, moddiylik tushunchasi juda keng qamrovli tushunchaga ega bo‘lib, tilda madaniy ko‘rsatkichlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ochib beradi. Quyida misollarni ko‘rib chiqamiz: “**Boyvachcha**” o‘quvchilar yoki maktabda o‘qiydigan farzandingizga qancha **pul** berasiz? Farzandimning darsdan chiqishini kutib, atrofni kuzataman. O‘quvchilarning qo‘lidagi **pulni dasta-dasta pullarni ko‘rib, o‘ylanib qolaman. Nahotki, ularga ota-onalari shuncha o‘ylamay berib qo‘ysa?**(H.2021.No20) va h.k.

Amerikacha va o‘zbekcha vatanparvarlik. Inglizlarda vatanparvarlik tushunchasi o‘zbek tilidan farqli o‘laroq to‘g‘ridan-to‘g‘ri til bo‘yoqlarisiz o‘z ma‘nosi ifodalaniadi. Ular inglizlarda aynan bir negizli ma‘no kasb etadi, desak xato qilgan bo‘lamiz quyida ularni ko‘rib o‘tamiz: **cradle, home, mother country, motherland, hometown, place of origin, roots** va boshqalar. Masalan: “*Linford Christie: Britain’s fastest ever sprinter on race, patriotism and persistence*”(NYT. 13.05.2021) va h.k.


Milliy qadriyatlardan biri bo‘lgan o‘zbek tilidagi “**Vatan**” tushunchasi juda ko‘p sinonimik qatorga ega: **ona-yurt, ona diyor, tug‘ilgan makon, ona zamin, kindik qoni to‘kilgan joy** va boshqalar, **Vatanni qalban chuqur his qilish uchun xalqning vatanparvarlik namunalarini bilish, uni e‘zozlash, qadriga yetish, mustahkamlash kerak. Mana shu tuygular, mana shu go‘zal insoniy oliy fazilatlar bugungi erkin kunimiz uchun haqiqiy vatanparvarlik namunasidir** (Y.O‘.2020.No12); **Vatan tuyg‘usi** – bu o‘z xalqini sevish, u bilan faxrlanish, uni hurmat qilish va qadriga yetish deganidir. **Vatan tuyg‘usi** – bu shu aziz yurtning ozining halol peshona teri bilan obod etgan ajdodlarimizni doimo eslamog demakdir. Shunday tuyg‘u, hislarga ega bo‘lgan inson o‘z **Vatanini sevmaligi, undan yiroqda bo‘lganida uni qo‘msamasligi** mumkin emas (Y.O‘.2020.No12); Sarlavhalarda: “**SEN – QUDRAT MANBAI, SAODAT MASKANI, JONAJON O‘ZBEKISTONIM!**” (MT.2020.No34) va h.k.

Har ikkala millatda ham tinchlik umuminsoniy qadriyatlar sifatida ulug‘lanadi va tinchlik qadri targ‘ib qilinadi: “**Totuvlik, ahil** – inoqlik xalqimizning qon-qoniga singib ketgan fazilat” (H.24.05.2012); “**Zero, inson qadr-qimmatini**

e'zozlanadigan mamlakatda farovonlik va eng muhimi, tinchlik hukm suradi..." (YAO'.2021.№5) va h.k.


Inglizlarda umuminsoniy qadriyatlarning % larda ko'rinishi:

1-jadval



O'zbek mediamatnlarida umuminsoniy qadriyatlarning % ko'rinishi:

2-jadval



Ingliz bosma nashrlarda umuminsoniy qadriyatlarning 40 dan ortiq turi umumiy hisobda 200 ga yaqin misol % ko'inishida keltirilgan. O'zbek gazeta nashrlarining umumiy hisobga 50dan ziyod so'ngi 3 yil mobaynida sonlarida 200 dan ortiq misollarlar tahlilga tortildi.

Dissertatsiyaning **“Ingliz va o'zbek mediamatnida umuminsoniy qadriyatlarning lingvomadaniy aksiologiyasi”** deb nomlanuvchi uchinchi bobida media olamida lingvomadaniy aksiologik hodisa tavsifi aks ettiriladi, o'rganilayotgan tillarning umuminsoniy qadriyatlar tizimi ifodalanishining o'ziga xos xususiyatlarini ochib beriladi.

Har bir millatning o'zi qadrlaydigan madaniyati, tili, an'analari, urf-odatlarini, marosimlari va odob normalari bor. Gazeta matnlarida yuqorida qayd etilgan lisoniy ifoda vositalarini qo'llashda milliy qadriyatlar alohida ahamiyatga ega.

